

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институтини
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLUKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

Nishonov A. A.

Farg'ona davlat universiteti., PhD

Abdurasulovich90@gmail.com

KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR

ANNOTATSIYA

Keldimuhammad sulton tarixini yoritishda tarixiy yozma manbalar katta ahamiyatga ega. Ulardan samarali foydalanish ushbu davr tarixini chuqur o'rganish, bo'lib o'tgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealarning to'la tasvirini qayta tiklash, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini to'g'ri tahlil qilish, davrning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotini to'laroq yoritishga yordam beradi. Maqolada Keldimuhammad sulton hukmronligi davrida Farg'ona vodiysidagi siyosiy jarayonlarga oydinlik kiritilgan.

Kalit so'zlar: Keldimuhammad sulton, tarixiy manbalar, ilmiy adabiyor, tadqiqot, valiahd, "Tarixiy Rashidiy", "Boburnoma", "Shayboniynoma", Axi, Toshkent, Shohruhiya.

KIRISH

Sevinchxojaxon vafotidan so'ng hokimiyat uning o'g'li Keldimuhammad qo'lga o'tdi. Keldimuhammad Toshkent shahridan turib davlatni boshqargan bo'lsa-da, Farg'ona vodiysi ham uning davlati tarkibida edi. Sevinchxojaxon zamonida bo'lgani kabi Keldimuhammad davrida ham Farg'ona vodiysi bir necha ma'muriy birliklarga bo'lingan holda Andijon, Axi, Marg'ilon, Xo'jand kabi yirik shaharlarning hokimlari tomonidan boshqarilgan. Afsuski, ularning nomlari haqida manbalarda ma'lumotlar uchramaydi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Keldimuhammad sulton hukmronligi davrida Farg'ona vodiysidagi siyosiy jarayonlar haqida Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", eronlik muarrixlar Mir Yahyo Sayfiyning "Lub at-tavorix", Hasanbek Rumluning "Ahsan at-tavorix", Iskandarbek Munshiyning "Tarixi olamoroyi Abbosiy", Hofiz Tanish Buhoriyning "Abdullanoma", XVII asr o'zbek tarixchisi Muhammadyor ibn Arab Qatag'anning "Musaxxir al-bilod", Muhammad ibn Valining "Bahr-ul asror", Muhammad Yusuf munshiyning "Tari Muqimxoniy" va boshqa ko'plab tarixiy manbalarda ma'lumot berilgan.

Manbalardagi malumotlarni mantiqiy jihatdan bog'lash jarayonida qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

Keldimuhammad sulton (tarixiy manbalarda Sulton Muhammad Bahodir deb ham atalgan) otasi Sevinchxojaxon hukmronligi davrida Shohruhiya shahrida hokimlik qilgan.

Tarixchi Muhammadyor ibn Arab Qatag'an Keldimuhammad haqida shunday yozgan edi: "Otasi vafot etgach, bir necha kun Toshkent viloyatida o'zbek amirlari ittifoqchiligida davlat va mamlakat sohibi, toju-taxt egasi bo'lib, adolatda saltanat va hukumat yurgizdi. Bir necha kunlar shu yanglig' o'tgach, u ham otasi ketidan oxirat sari oshiqdi. Bu voqea 939 yili (milodiy 1532-yil) ro'y berdi. Saltanati ayyomi sakkiz yil bo'ldi. Keldimuhammad sultondan Hasanxon ismli bir o'g'il qoldi. Hasan sulton ozgina vaqt amakisi Baroqxon tarbiyati ostida bo'lib, o'z ajali bilan vafot etdi. Biroq, undan avlod qolmadi".

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 1525-yil 23-iyul kuni Sevinchxojaxon Toshkentda vafot etgandan so'ng Keldimuhammad sulton otasi o'rniga taxtga chiqadi. Ukasi Navro'z Ahmadxon esa SHohruhiya shahriga hokim qilib tayinlanadi. Bundan ko'rinadiki, Toshkent va Farg'ona mulklarining valiahdi SHohruhiya shahriga hokimlik qilishi o'ziga hos an'anaga aylangan edi. Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, Keldimuhammad sulton hukumatining bosh vaziri Xoja Jaloliddin Yusuf Qoshg'ariy bo'lgan.

Keldimuhammad sulton ham otasi Sevinchxojaxon kabi Farg'ona vodiysiga sharqda qo'shni bo'lgan Saidiya davlati hamda shimoliy hududlarda yashovchi qirg'iz qabilalari bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini o'rnatishga harakat qildi. Vodiyning shimoliy chegaralarida yashovchi qirg'iz qabilalarining bir qismi Saidiya davlatiga bo'ysungan bo'lsalar, yana bir qismi Qozoq xonlariga qaram edi. Keldimuhammad sulton qirg'izlar ustidan hukmronlik qilish uchun Qozoq xonlari va Saidiylar o'rtasidagi raqobatdan Farg'ona vodiysi xavfsizligini ta'minlashda samarali foydalanishga harakat qilgan. 1521-yili Qosimxon vafot etganidan so'ng Qozoq xonligida vujudga kelgan qulay siyosiy vaziyat ham bunday siyosat yuritishga imkon bergan edi. Xususan, qozoq sultoni Tohirxon misolida buni ko'rishimiz mumkin. Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, Tohirxon siyosiy va harbiy sohada qobiliyatsiz edi. U 1523–1524-yillarda mang'itlar bilan kurashda mag'lub bo'lgach, ikki yuz ming aholisi bilan Mo'g'ulistonga qochgan edi. Sulton Saidxon dastlab Tohirxonga yordam bergan bo'lsa-da, uning qirg'izlarni o'z tarafiga og'dirishga urinishi natijasida mo'g'ul xoni bilan munosabati yomonlashishiga olib keldi. Bu esa Keldimuhammad sulton uchun qulay sharoit tug'dirdi. Mahmud ibn Valining yozishicha, "Bu paytda Qosimxondan keyin butun Qipchoq dashtini va Mo'g'ulistonning ba'zi hududlarini boshqarishni boshlagan Adikxonning o'g'li Tohirxon o'zining qo'pol fe'l-atvori tufayli qabilalar va jangchilar yuragini bezdirib yubordi. U mamlakat boshliqlari va zodagonlari tomonidan tashlab ketilgach, yordam uchun Keldimuhammad sultonga murojaat

qilgan. Sevinchxojaxonning o'g'li hamda vorisi unga yordam berishga rozi bo'ldi va ular bir necha marta elchilarini almashdilar. Elchilar har ikki tomondan ham hurmat bilan qabul qilindi. Qozoq xonining Sultondan yordam so'rab murojaat qilgani, do'stlik va'dasi va u bilan ittifoq tuzganligi haqidagi xabar dushmanlarining qulog'iga etib kelganida, ular dahshatga tushdilar". Bundan ko'rinadiki, Tohirxon aynan Sulton Saidxon bilan munosabatlari yomonlashganidan, shuningdek, o'z qo'li ostidagi a'yonlari bilan til topisha olmaganidan so'ng, yordam so'rab Keldimuhammad sultonga murojaat qilgan. Bu vaqtda qozoqlar shimoli-g'arbda no'g'aylarning, janubi-sharqda esa mo'g'ullarning tayziqi ostida qolayotgan edi. Toshkent xoni uchun Sulton Saidxonning yanada kuchayib ketishi ma'qul bo'lmagan. Farg'ona vodiysiga bo'lgan da'volarida voz kechmagan Qoshg'ar xonining kuchayib ketishidan cho'chigan Keldimuhammad sulton qozoqlarni qo'llab-quvvatlashni lozim topgan. Mo'g'ul xoni Sulton Saidxonning o'g'li Abdurashidxon hamda no'g'aylarga qarshi kurashda yordam so'rab kelgan qozoq elchilari Toshkentda yaxshi kutib olingan. 1525-yili Keldimuhammad sulton va marhum qozoq xoni Qosimxonning jiyani va vorisi Tohirxon bilan ittifoq tuzgan. Bu ittifoqdan so'ng Tohirxonni tashlab ketgan qozoq zodagonlari yana uning huzuriga qaytishgan. Qolaversa, ittifoqdan xabar topgan mo'g'ullarning Abdurashidxon boshchiligidagi lashkari ham yurishni to'xtatib, Oqsuvdan ortga qaytgan. No'g'aylarning qozoqlarga tazyiqi ham kamaydi. Bu esa Keldimuhammad sultonning ushbu hududdagi mavqei ancha kuchli bo'lganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi voqealardan so'ng shayboniylar mulklarining shimoliy va sharqiy chegaralarida siyosiy vaziyat barqarorlashdi. Tohirxon hokimiyatining mustahkamlanganidan so'ng u bilan aloqalarni yanada kengaytirishni xohlagan Keldimuhammad sulton qutlov maktubi bitib elchilarni jo'natgan. Bu vaqtda no'g'aylar va mo'g'ullar xavfini bartaraf etgan Tohirxon o'z mulklarini Shayboniylar hududlari hisobiga kengaytirishga intila boshlaydi. Shu maqsadda qozoq xonni shayboniylar elchisini hibsga oladi. Bundan xabar topgan Keldimuhammad sulton Toshkent, Axsi, Andijon qo'shinlari bilan qish bo'lishiga qaramay qozoqlar ustiga yurish qildi. Bu vaqtda Sulton Saidxonning Andijonga qilgan yurishi hamda bu erda shayboniylarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonning bartaraf etilganligi Keldimuhammad sultonga barcha kuchlarni qozoqlarga qarshi jamlash imkonini berdi. Shayboniylar yurishidan xabar topgan Tohirxon ham o'z qo'shini bilan Turkiston tarafga qarab yo'l oldi. Turkistonga yaqin bo'lgan Tulki-Bashi va Oysha yaqinida ikki o'rtada jang bo'ldi. Shiddatli kechgan jangda Keldimuhammad qo'shinlari g'alaba qozondi. Tohirxon atrofida omon qolgan aslzodalar hamda ozgina askarlari bilan dasht ichkarisiga qochib ketgan. Keldimuhammad sulton g'alabadan so'ng qo'lga kiritilgan hududlarni Abdulla

sultonga topshirib, o'zi Toshkentga qaytdi. Mahmud ibn Vali bu jang 1525–1526-yil qish faslida bo'lganini ta'qidlagan. Ushbu mag'lubiyatdan keyin Tohirxonning qirg'izlar yashaydigan hududlarga chekinishi uning mo'g'ullar bilan munosabatlarini keskinlashtirib yubordi. Bu esa Sulton Saidxonning Farg'ona vodiysiga bo'lgan da'volarini ortga surib turishiga to'g'ri keldi. Qolaversa, Keldimuhammad sultonning ta'siri qozoqlar va qirg'izlar o'rtasida ham ancha mustahkamlandi. Bu haqida Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarida ham bir necha ishoralar bor. Shayboniylar qirg'izlarning mo'g'ullarga qarshi harakatlarini qo'llab-quvvatlash orqali bu erda o'z ta'sirlarini mustahkamlab olishga erishdilar. 1528-yili bo'lib o'tgan safaviylar va Shayboniylar o'rtasidagi Jom jangida qirg'izlarning ham qatnashganligi shundan dalolat beradi. Qirg'izlar bilan mo'g'ullarga qarshi o'ziga xos ittifoq shakllanishi Farg'ona vodiysining shimoliy chegarasi xavfsizligini mustahkamladi.

Ushbu davrda bo'lib o'tgan yirik voqealardan biri safaviylar va shayboniylar o'rtasida kechgan Jom jangi edi. Bu harbiy to'qnashuv to'g'risida shu urush qatnashchisi Zayniddin Vosifiyning “Badoe ul-vaqoe” va boshqa ko'plab tarixiy manbalarda ma'lumot berilgan.

Mahmud ibn Valining yozishicha, Jom yaqinidagi Zurobod hududiga Shayboniylar xoni Ko'chkunchixon, Toshkent xoni, marhum Sevinchxojaxonning o'g'illari Keldimuhammadxon va Baroqxon, marhum Temur sulton o'g'li Fo'lod sulton, Ubaydullohxon o'g'li Abdulaziz sulton, Ko'chkunchixonning o'g'illari Abu Said va Abdullatif sulton, taniqli Jonibek sulton va o'g'li Kistin Qora kabi o'nlab shayboniylar, ularga yordamga kelgan qozoqlar va qirg'izlar qo'shini etib kelgan. Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammadyor ibn Arab Qatag'an ham o'z asarlarida ushbu yurishda Baroqxon ham qatnashganligini qayd etishgan.

Zayniddin Vosifiy esa Toshkent qo'shini haqida so'z yuritganida faqat Keldimuhammad sulton nomini qayd etib o'tgan.

“Tarixi olamoroyi Abbosiy” asarida Jom jangida Ubaydulloxonga yordam uchun Toshkent, Axsi va Andijondan qo'shinlar etib kelganligini ta'kidlanib, bu qo'shinlarga Keldimuhammad sulton boshchilik qilganligi ko'rsatilgan.

E'tiborli tomoni shundaki, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida Sevinchxojaxon (Suyunchmuhammad sulton) ham Jom jangida ishtirok etganligini ta'kidlab, quyidagilarni yozadi: “Toki, to'qqiz yuz o'ttiz birinchi yilda shijoatnishon sulton Jonibek sulton, Ko'chkinchixon, Suyunchmuhammad sulton, Muhammad Temurxon va Ubaydulla bahodirxon kabi g'olib va qudratli jami (SHayboniy) xoqonlar hamrohligida cheksiz sipoh va had-hisobsiz lashkar bilan Xuroson viloyatiga yo'naldilar”. Aslida bu erda muarrix Toshkent hukmdori Sevinchxojaxonni emas Shayboniyxonning uchinchi o'g'lini nazarda tutgan.

Jom jangida Keldimuhammad sulton bilan birgalikda Baroqxon ham ishtirok etgan, lekin uning nomi Toshkent va Fargʻona qoʻshinining asosiy rahbari uning akasi Keldimuhammad sulton boʻlganligi sababli baʼzi manbalarda tilga olinmagan.

Jom jangi arafasida Movarounnahrda qoʻshni hududlardagi siyosiy vaziyat ham barcha shayboniy qoʻshinlarini bir erda jam boʻlishiga imkon yaratdi. Qoshgʻar xoni Sulton Saidxon Boluristonga yurish qilib, oʻz hududini sharqiy chegarasini mustahkamlashga intilishi bois Qoshgʻarning gʻarbida joylashgan Fargʻona vodiysiga moʻgʻullar xavf tugʻdirmas edi. Toshkent va Fargʻona vodiysining shimoli-sharqida yashovchi qozoq va qirgʻiz sultonlari SHayboniylar ittifoqchisi sifatida Jom urishida ishtirok etishi Movarounnahrdagi shayboniy sultonlarning bor eʼtiborini safaviylarga qaratish imkonini berdi.

Jom urushidan keyingi yillarda ham Fargʻona vodiysi chegaralarida barqaror siyosiy vaziyat saqlanib turdi. Moʻgʻul xoni Sulton Saidxon 1529–1530-yillarda asosan Badaxshonni oʻz davlati tarkibiga qoʻshib olishga urindi. Uning bu harakatlari muvaffaqiyatsiz chiqqan boʻlsa-da, Fargʻona vodiysi uchun ijobiy taʼsirga ega edi. Badaxshonning ham Saidiya davlati tarkibiga kirishi vodiyning sharqiy va janubiy sarhadlari moʻgʻullarga tegishli hududlar bilan chegaradosh boʻlib qolishiga olib kelar edi.

Shayboniylar davlatining shimoliy va sharqiy chegaralaridagi barqaror siyosiy vaziyat Keldimuhammad sultonga Shayboniylarning Xuroson yurishlarida faol ishtirok etish imkonini berdi. Zayniddin Vosifiy “Badoe ul-vaqoe” asarida 1530-yili Keldimuhammad sulton Toshkent va Fargʻona qoʻshinlari bilan Xurosonga yurish uyushtirganligi taʼkidlangan.

XULOSA

Shuni aytish mumkinki shayboniy sultonlardan Keldimuhammad sultonning qozoq sultonlari va Qoshgʻar xonlari bilan olib borgan oʻzaro munosabatlarida Fargʻona vodiysining xavfsizligini taʼminlashga katta eʼtibor qaratgan. Fargʻona qoʻshinlari Toshkent xonlari lashkari safida Safaviylarga qarshi yurishlarda faol ishtirok etgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Eskandar Beg Monshi. History of Shax Abbas the Great (Tarik-e Alamara-ye Abbasi) / translate by Roger M. Savory. Volume I. – Colorado: Westview Press. 1930. – P. 88.

2. Зайниддин Мухаммад Восифий. Бадоеул вақоеъ – Нодир воқеалар. / Форсийдан Н.Норкулов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. 216-б.

3. Замонов А. Жом жанги // Жом жанги ёхуд XVI асрнинг катта маҳорабаси. <https://t.me/uzbtarixkanal>. 30.11.2020
4. История Казахстана (с древнейших времен до наших дней). В пяти томах. Редколлегия тома: К.М.Байпаков, М.К.Козыбаев, Б.Е.Кумеков, К.А.Пишулина. Том 2. – Алматы: Атамұра, 1997. – 624 с.
5. Махмуд ибн Вали. Бахр ал-асрар фи манакиб ал-ахйар. Т. 6, ч. 3, л. 178 б
6. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Тарихи Рашидий. / сўз боши ва изоҳлар муаллифи ҳамда таржимонлар В.Рвхмонов ва Я.Эгамова. – Т.: Шарқ. 2010. – Б. 257-259
7. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод / Тасҳиҳи Нодира Жалолий. – Техрон: Мероси Мактуб, 2008 (Фарс тилида); Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод (мамлакатларнинг эгалланиши) / Фарс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари И.Бекжонов, Д.Сангирова. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. (Ўзбек тилида) – 429 б.
8. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). Биринчи китоб / Форс тилидан С. Мирзаев таржимаси; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б.Аҳмедов. – Т.: Шарқ, 1999. – 416 б.; Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). Иккинчи китоб / Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Ҳакимжонов таржимаси; илмий муҳаррир, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б.Аҳмедов. – Т.: Шарқ, 2000. – 416 б.

Нишонов А. А.

Ферганский государственный университет., PhD

Abdurasulovich90@gmail.com

ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ СУЛТАНА КЕЛДИМУХАММАДА

АННОТАЦИЯ

Большое значение в освещении истории султана Кельдымухаммада имеют исторические письменные источники. Их эффективное использование помогает глубоко изучить историю этого периода, восстановить полную картину происходивших политических, социально-экономических событий, правильно проанализировать причины и последствия их возникновения, а также всесторонне осветить социально-экономическую и культурную жизнь того периода. В статье освещаются политические процессы в Ферганской долине в период правления султана Кельдымухаммада.

Ключевые слова: Султан Келдимухаммад, исторические источники, научная литература, исследования, наследный принц, «Тарихи Рашиди», «Бобурнома», «Шайбанинома», Ахси, Ташкент, Шахрухия.

Nishonov A. A.
Fergana state university., PhD
Abdurasulovich90@gmail.com

POLITICAL PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY DURING THE RULE OF SULTAN KELDIMUHAMMAD

ABSTRACT

Historical written sources are of great importance in covering the history of Sultan Keldimuhammad. Their effective use helps to deeply study the history of this period, restore a complete picture of the political, socio-economic events that took place, correctly analyze the causes and consequences of their occurrence, and fully illuminate the socio-economic and cultural life of the period. The article sheds light on the political processes in the Fergana Valley during the reign of Sultan Keldimuhammad.

Key words: Sultan Keldimukhammad, historical sources, scientific literature, research, crown prince, "Tarikhi Rashidi", "Boburnoma", "Shaibaninoma", Akhsi, Tashkent, Shahrukhiya.